

## KIMYO 7-SINF 46-50&amp;

	SAVOL	JAVOB
1	Tuzlar deb qanday moddalarga aytiladi?	Metall atomlari (yoki ammoniy $\text{NH}_4^+$ ) va kislota qoldig'idan iborat bo'lgan murakkab moddalarga
2	Tuzlarning umumiy formulasi qanday ifodalanadi?	$\text{M}_n\text{K}_m$ tarzida ifodalanadi: bu yerda M - metall atomi (yoki ammoniy $\text{NH}_4^+$ ); K - kislota qoldig'i; n - kislota qoldig'ining valentligi; m - metall atomi valentligi.
3	Metall atomi kislota tarkibidagi barcha vodorod o'rnini olgan, metall atomi va kislota qoldig'idan iborat murakkab modda qanday nomlanadi?	O'rta tuz
4	Metall atomi kislota tarkibidagi vodorodning bir qismi o'rnini olgan, metall atomi hamda vodorod va kislota qoldig'idan iborat murakkab modda qanday nomlanadi?	Nordon tuz
5	Tarkibida metall atomi va kislota qoldig'i bilan birga gidroksid guruhi tutgan murakkab modda qanday nomlanadi?	Asosli tuz
6	Qizil qon tuzi qanday kimyoviy formula bilan ifodalanadi?	$\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$
7	Sariq qon tuzi qanday kimyoviy formula bilan ifodalanadi?	$\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$
8	Inson organizmi umumiy massasining qancha (%) qismini tuz tashkil etadi?	5,5%
9	Osh tuzi tibbiyotda nima maqsadda ishlatiladi?	Fiziologik eritma tayyorlashda
10	Ammoniyli selitra ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ) qayerlarda sun'iy tarzda ishlab chiqariladi?	Farg'ona azotli o'g'itlar korxonasi, «Navoiyazot» AJda
11	Temiming sulfidli tuzlaridan nimalar olinadi?	Cho'yan va po'lat
12	Respublikamizning qaysi konlaridan <b>marmar</b> qazib olinadi?	Nurota va G'ozg'on
13	<b>Osh tuzi</b> ( $\text{NaCl}$ ) va <b>silvinit</b> ( $\text{NaCl-KCl}$ ) qaysi konlardan qazib olinadi?	Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal'a
14	<b>Fosforit</b> ( $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ) qaysi konlardan qazib olinadi?	Markaziy Qizilqum, Qoraqat, Shimoliy Jetitov
15	Bir qator rangli metallarning sulfid tuzlari qayerdan qazib olinadi?	Olmalik tabiiy konlaridan
16	"Ekvivalent" so'zi qanday ma'noni anglatadi?	Teng qiymatli
17	Elementning ekvivalentligi deb nimaga aytiladi?	1 mol (1g) vodorod atomlari bilan qoldiqsiz birikadigan yoki kimyoviy reaksiyalarda shuncha vodorod atomlarining o'rnini oladigan miqdoriga
18	Ekvivalent tushunchasini fanga kim kiritgan?	1820-yilda ingliz olimi Volloston
19	Ekvivalent hajm nima?	Moddaning 1 ekvivalenti egallaydigan hajm bo'lib, gazsimon holat uchun qo'llanadi (1 ekvivalent hajm $\text{H}_2$ - 11,2 l/mol, $\text{O}_2$ - 5,6 l/mol)
20	Oksidlar ekvivalenti qanday topiladi?	shu oksidni hosil qiluvchi element soni (n) va uning valentligi (V) ko'paytmasi aniqlanib, oksidning nisbiy molekular massasi (Mr) shu ko'paytmaga bo'linadi
21	Oddiy moddalar ekvivalenti qanday topiladi?	Oddiy modda nisbiy atom massasini

		valentlikka bo'lib $E=A_r/V$
22	Asoslarning ekvivalenti qanday topiladi?	Asoslarning ekvivalentini topish uchun asosning nisbiy molekular massasi ( $M_r$ ) gidroksil guruh soniga ( $n$ ) bo'linadi: $E(\text{asos})= M_r/n(\text{OH})$
23	Kislotalarning ekvivalenti qanday topiladi?	Kislotalar nisbiy molekular massasini ( $M_r$ ) kislota tarkibidagi vodorod atomlari soniga, ya'ni kislota negizlilikiga bo'lib
24	Tuzlarning ekvivalenti qanday topiladi?	Tuzning nisbiy molekular massasini ( $M_r$ ) tuz hosil qiluvchi metall valentligi ( $V$ ) bilan metall atomlar soni ( $n$ ) ko'paytmasiga bo'linadi. $E(\text{tuz})= M_r/V \cdot n$